**2022-yil "17" fevraldagi**
**107- sonli buyruqqa**
**1-ilova**

# 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 2022-yil - "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida amalga oshirishga oid CHORA-TADBIRLAR DASTURI

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so'mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **I. INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH YO'NALISHI BO'YICHA** | | | | | | |
| 1 | Kombinatda "Davlat – xalq xizmatchisi" tamoyili asosida Jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilishni tashkillashtirish, bo'linmalarda sayyor qabullarni tashkil qilish. | 1. "NKMK" AJ rahbariyati hamda mutasaddi mutaxassislardan iborat ishchi guruhining 2022-yilda shaxsiy masalalar bo'yicha qabuli va sayyor qabullarini o'tkazish bo'yicha jadvali tasdiqlandi.<br>2. Tasdiqlangan jadval asosida barcha bo'linmalarda qabullar tashkil etiladi: bunda<br>-joylardagi murojaatlar o'rganiladi. | Har bir o'tkazilgan sayyor qabul natijalari yuzasidan NKMK rahbariyatiga yozma ravishda ma'lumot taqdim etiladi | Jadval asosida | - | Q. Taparov,<br>I. Raxmatov,<br>Sh. Idiyev |
| 2 | 30-iyul – "Xalqlar do'stligi" kuni munosabati bilan Navoiy kon-metallurgiya kombinatida mehnat qilayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida hamjihatlik, bag'rikenglik, millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari va seminarlar o'tkazish. | 1. Kombinat va uning bo'linma-larida turli millat vakillari o'rtasida hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.<br>2. Barcha bo'linmalarda **"Kuch – qudratimiz do'stlikda"** mavzusida tadbirlar tashkil etiladi: bunda<br>- rus, qozoq, tojik va boshqa millat vakillari ishtiroki ta'minlanadi;<br>3. Tadbirlarda faol ishtirok etganlarga sovg'alar beriladi | Har bir bo'linmada ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi | 2022-yil mart<br><br>2022-yil 28-29-30-31-iyul | **100** | Q. Taparov,<br>A. Shaymardanov,<br>I. Raxmatov,<br>X. Raupov,<br>S. Radjabov,<br>bo'linma rahbarlari |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 3 | Xotin-qizlar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratish, gender tengligini ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish. | 1. NKMK bo‘linmalarida xotin-qizlar faolligi va gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.<br>2. Davlat mukofotlari va kombinat mukofotlariga nomzodlarni taqdim etishda gender tenglikni ta’minlashga erishish.<br>3. MKB, SHKB, JKB, NMZ, GRE kabi bo‘linmalarda xotin-qizlarga yaratilgan sharoitlarni o‘rganish. | Reja ishlab chiqiladi<br><br>Jadval ishlab chiqiladi.<br><br>O‘rganish natijalari bo‘yicha rahbariyatga ma’lumotnoma kiritiladi. | 2022-yil fevral<br><br>Reja asosida | - | Q. Taparov,<br>S. Nazarova,<br>O.Rahmatov,<br>A.Tursunov,<br>O.Temirov |
| **II. MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOYILLARINI TARAQQIYOTNING ENG ASOSIY VA ZARUR SHARTIGA AYLANTIRISH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |
| 4 | Ishchi-xodimlar o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, amaldagi qonunchilikni targ‘ib qilish | 1. Kombinat ishchi-xodimlari o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanadi.<br>2. Barcha bo‘linma ishchi-xodimlarining huquqiy bilim va ongini yuksaltirish bo‘yicha keng qamrovli targ‘ibot tadbirlari, davra suhbatlari va seminarlar o‘tkaziladi. | Chora-tadbirlar rejasi | 2022-yil 10-mart<br><br>Chora-tadbirlar rejasiga asosan | - | A. Soliyev,<br>X. Raupov,<br>M. Xaitova |
| 5 | “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasi asosida mamlakatimizdagi yangilanish jarayonlari, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli | 1. “Siyosiy–ma’rifat soati” mashg‘ulotlari kombinat portaliga joylashtirilib boriladi. | Bo‘linmalarda har juma kunlari xodimlar ishtiroki ta’minlanadi | Har hafta | - | X. Raupov,<br>B. Davlatov |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | islohotlar mazmun-mohiyati bilan kombinat xodimlarini tanishtirib borish maqsadida ularning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining “Siyosiy-ma’rifat soati”da ishtirokini ta’minlash. | | | | | |
| 6 | Kombinat bo‘linmalarida **“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”** nomli ko‘rgazmali vositalarni o‘rnatish | **“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”** nomli ko‘rgazmali vositalar bo‘yicha shartnomalar qilish | Shartnoma asosida | fevral | **100** NKMK va Kasaba uyushmasi mablag‘lari | Q. Taparov, A. Shaymardanov, I. Raxmatov |
| **III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O‘SISH SUR’ATLARINI TA’MINLASH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |
| 7 | 2022-2026-yillarda kon-metallurgiya mashinalari, texnikalari va uskunalarining yangi turlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish. | 1. Kombinat mutaxassislari tomonidan kon-metallurgiya mashinalari, texnikalari va uskunalarining yangi turlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturiga takliflar ishlab chiqiladi.<br><br>Bunda, Navoiy mashinasozlik zavodi quvvatlarini kengaytirish bo‘yicha Konsepsiya ishlab chiqilib, taqdim etiladi. | Qaror loyihasiga taklif kiritish | 2022-yil | - | U. Raxmatov, S. Rustamov, D. Baxranova, J. Xayitov |
| 8 | Kon-metallurgiya sanoati sohasida **ekologik talablar** va atrof-muhit **muhofazasi me’yorlari**ni xalqaro standartlar asosida belgilash Dasturini ishlab chiqish. | 1. Vazirlar Mahkamasi qaror loyihasini ishlab chiqish maqsadida kombinat vakilining Toshkent shahrida tashkil etiladigan seminarda ishtirokini ta’minlash.<br>2. Atrof-muhitga chiqariladi-gan ifloslantiruvchi moddalarning ekologik talablar doirasidan oshmasligini | Seminarda ishtirok etiladi | 2022-yil fevral | - | N. Snitka, A. Tursunov, B. Temirov, O. Temirov |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | ta’minlash.<br>3. Kon-metallurgiya sanoati korxonalarida ilg‘or xorij tajribasidan kelib chiqib, ekologik menejment tizimini joriy etish. | Dastur tasdiqlangandan boshlab | 2022-yil iyun | | |
| 9 | Mis sanoati klasteri uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish hamda sohada **tajriba-konstruktorlik** va **ilmiy izlanishlar** ko‘lamini kengaytirish dasturini ishlab chiqish. | Bunda, korxonaning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojidan va zamonaviy kasb yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda **elektrotexnika**, **elektronika**, **dastgohsozlik**, **mashinasozlik**, **metallurgiya**, **materialshunoslik**, **“yashil texnologiyalar”**, **nano texnologiyalar**, **robototexnika**, yarim o‘tkazgichlar fizikasi bo‘yicha yangi ta’lim yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlashni kengaytirish;<br>- **muhandis**, **texnik** va boshqa o‘rta bo‘g‘in ishchi-xodimlarni tayyorlash bo‘yicha **professional ta’lim** o‘quv dasturlarini amaliyot bilan uzviy bog‘liqlikda joriy etish;<br>- mis klasteri faoliyatiga bog‘liq ilmiy-tadqiqot ishlari yo‘nalishlari asosida **maqsadli davlat buyurtmasi portfeli** shakllantiriladi. | | 2022-yil 15-sentyabr | - | Q. Taparov,<br>O. Raxmatov,<br>N.Abdiazizov,<br>A. Rizayev,<br>K. Dadabayev |
| 10 | **Metallurgiya sohasida** yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish. | **1. “Navoiy KMK” AJ**da 2026-yilgacha qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni oshirish dasturi doirasida **1,6 mlrd AQSh dollar**lik **16 ta** investitsiya loyihasini amalga | Tasdiqlangan TIA va loyiha-smeta hujjatlarga muvofiq | 2022-2026-yillar | | F. Baxronov,<br>A. Shaymardanov<br>M. Alkarov,<br>N. Ro‘ziyev |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | oshirish.<br>2. 3 ta loyiha bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining TIA ishlab chiqish va tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorlari loyihalarini tayyorlash.<br>3. **2022-yil yakuniga qadar 13 ta** investitsiya loyihasi doirasida xorijiy bank kreditini jalb qilish bo‘yicha:<br>- kredit shartnomalarini rasmiylashtirish;<br>- uzluksiz kredit mablag‘lari bilan ta’minlash. | TIA ishlab chiqish<br>Kredit shartnomalari | 202-yil sentyabr<br>Fevral-mart 2022-yil<br>Grafik asosida 2022-yil oktyabrga-cha | **486 mln.dollar** kredit mablag‘lari | |
| 11 | Sanoat tarmoqlarida **mehnat unumdorligini oshirish** dasturlarini keng joriy qilish. | Iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligiga Xalqaro ilg‘or tajribadan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasida **2030-yilgacha mehnat unumdorligini oshirish konsepsiyasi ishlab chiqish yuzasidan** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror loyihasi bo‘yicha taklif kiritish.<br>Bunda:<br>mehnat unumdorligini oshirish omillaridan biri sifatida **“Jarayonlar fabrikasini” o‘quv ishlab chiqarish laboratoriyalari** tashkil etiladi;<br>sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini va maqsadli ko‘rsatkichlari ishlab chiqiladi; | O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha mehnat unumdorligini oshirish konsepsiyasi yuzasidan ishlab chiqilgan Qaror loyihasini o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqib, kelishish. | 202- yil<br>Iyun | - | Q. Taparov,<br>A. Shaymardanov,<br>U. Raxmatov,<br>J. Xayitov,<br>O. Raxmatov,<br>B. Tursunov |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Navoiy mashinasozlik zavodida mehnat unumdorligini oshirishda xorijiy tashkilotlar hamkorligida dastlabki **(pilot)** loyihalari amalga oshiriladi. | | | | |
| 12 | Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan **“Biznesga ko‘maklashish markazi”** tashkil etib, tadbirkorlarni biznes yuritishga o‘rgatish. | “Biznesga ko‘maklashish markazi” tashkil etish bo‘yicha Hukumat qarorini ishlab chiqishda Navoiy viloyati hokimligi bilan hamkorlikda ishlab, tegishli takliflar kiritiladi. Bunda:<br>tegishli dasturlar ishlab chiqiladi va ularni belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.<br>**“Biznesga ko‘maklashish markazi**”ga biznes rejalarni ishlab chiqishda Navoiy davlat konchilik instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi professor-o‘qituvchilarini jalb qilib, chora- tadbir rejalari ishlab chiqiladi. | Qaror loyihasini tayyorlashda ishtirok etish | 2022-yil 18-mart<br><br>Reja asosida | Tasdiqlangan loyiha smeta harajatlari asosida | Q. Taparov,<br>A. Shaymardanov,<br>O. Raxmatov,<br>B. Mardonov |
| 13 | Navoiy viloyatida har yili o‘tkaziladigan Xalqaro sanoat kooperatsiya forumi hamda mahalliy sanoat loyihalarida ishtirok etish. | 1. Har yili o‘tkaziladigan Xalqaro sanoat kooperatsiya forumida o‘rnatilgan tartibda ishtirok etish;<br>2. Mahalliy sanoat loyihalari tashabbuskorlari bilan kooperatsiya aloqalarini yanada kengaytirish, ularga amaliy yordam ko‘rsatish. | Chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi<br><br>“Yo‘l xaritalari” | Forum o‘tkazilish muddatida<br><br>doimiy ravishda | **200** | A. Shaymardanov,<br>S. Rustamov,<br>D. Baxranova,<br>J. Xayitov,<br>L. Beknazarov |
| 14 | Mahalliylashtirish dasturi doirasida 157 ta loyihalar bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish. | 1. Mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan 514,8 mlrd. so‘mlik 157 ta loyiha, shu jumladan 344,1 mlrd. so‘mlik 104 ta yangi va kengaytiriladigan loyihalarni tarmoq jadvallariga asosan so‘zsiz bajarilishini ta’minlash;<br>2. Yangi loyihalar bo‘yicha loyiha-texnik hujjatlarni ishlab chiqish, o‘zlashtirilgan mahsulotlarni tajriba- | “NKMK” AJning 2022-yil 26-yanvardagi 54-sonli buyrug‘i asosida<br><br>Loyihalarni amalga oshirish tarmoq jadvali asosida | 2022-yil yanvar-dekabr<br><br>tarmoq jadval-lariga | - | S. Rustamov,<br>D. Baxranova,<br>U. Raxmatov,<br>J.Xayitov |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | sanoat sinovlaridan o‘tkazish va mahsulot ishlab chiqarilishini tashkil etish. | | asosan | | |
| 15 | Ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalarni va sun’iy intellekt tizimlarini joriy etish. Pistali 6-GMZda avtomatlashtirilgan tizim, 5-GMZ flotatsiya uchastkasida sun’iy intellekt tizimini joriy etish. | 1. Texnik hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>2. O‘rnatilgan tartibda savdolarni o‘tkazish va loyihada ko‘zda tutilgan uskuna-materiallarni sotib olish<br>3. Qurilma va nostandart avtomatlashtirish vositalarini ishlab chiqarish, sinovdan o‘tkazish<br>3. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish.<br>4. Tizimni tadbiq etish | Texnik hujjat asosida | iyun<br>oktyabr<br>noyabr<br>dekabr<br>dekabr | **17 000** | A. Shaymardanov,<br>O. Mustaqimov,<br>V. Po‘latov,<br>B. Davlatov |
| 16 | 2022-yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturiga ko‘ra kombinatda istiqbolda modernizatsiya qilish, yangi loyihalarni amalga oshirish, yangi ishlab chiqarish ob’ektlarining ishga tushirilishi hisobiga **2 095 ta yangi ish o‘rinlari yaratish** va malakali ishchi-xodimlar bilan ta’minlash. | 1. Yangi ish o‘rinlarining mutaxassislik va ixtisosliklariga qarab, ehtiyoj bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilari, ma’lum bir kasbga ega bo‘lgan ishsiz fuqarolar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda teng raqobatlasha olmaydigan, kasbga ega bo‘lmagan ishsiz fuqarolarni Navoiy shahridagi “ISHGA MARHAMAT” Monomarkazi davlat muassasasida kasbga o‘qitish orqali shaffoflik va ochiqlik prinsiplari asosida ish bilan ta’minlash. | Tasdiqlangan reja | Har oyda | - | Q. Taparov,<br>F. Baxranov,<br>O. Raxmatov,<br>B. Tursunov,<br>bo‘linmalar rahbarlari,<br>O‘quv markazi direktorlari |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 17 | Navoiy viloyatida yirik sanoat korxonalari va kichik biznes o‘rtasida “kooperatsiya aloqalari”ni kuchaytirish maqsadida “NKMK” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg‘armasi” DM korxonalarining qo‘shma sanoat yarmarkalarini tashkil etish. | 1. “NKMK” AJ, “Navoiyuran” DK va “NKMK jamg‘armasi” DMning qo‘shma sanoat yarmarkalari ishiga davlat boshqaruvi organlari, respublika tarmoqlari va hududiy sanoat korxonalarini taklif etish;<br>2. Yarmarkalar o‘tkazish vaqtida kombinat stendida namoyish qilish uchun tarqatma materiallarni shakllantirish hamda mahalliylash-tirilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish va import mahsulotlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar quvvatlarida o‘zlashtirish maqsadida, ularni namoyish qilish;<br>3. Yarmarka ishi davomida mahsulotlarni xarid qilish bo‘yicha shartnomalar hamda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha hamkorlik memorandumlarini tuzish, shuningdek ularning ijrosini ta’minlash. | qo‘shma chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi | Davlat organlari bilan ke-lishilgan grafikka asosan<br>Yarmarka ishi kunlarida<br>O‘rnatil-gan muddat-larda | **100** | A. Shaymardanov, S. Rustamov, D. Baxranova, J. Xayitov L. Beknazarov |
| 18 | **“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!”** nomli ichki turizm dasturi asosida mamlakatimizdagi tarixiy shaharlarga **4 ming nafarga** yaqin kombinat ishchi-xodimlari uchun sayohatlar tashkil etish. | 1. Kombinat ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan tuzilgan reja ishlab chiqildi.<br>2. Yil davomida tarixiy shaharlarga sayohatlar tashil etiladi. | Tasdiqlangan reja asosida | Har oyda | **1 200**<br>NKMK va Kasaba uyushmasi mablag‘lari | A. Shaymardanov, I. Raxmatov, R. Ergashev S. Radjabov |
| **IV. ADOLATLI IJTIMOIY SIYOSAT YURITISH, INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 19 | O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining sirtqi bo‘limiga o‘qishga kirish uchun yosh, istiqbolli xodimlarga tavsiyanomalar berishni komission tartibda ko‘rib chiqib, kontrakt to‘lovlarini tavsiyanomaga asosan to‘lab berish. | “NKMK” AJ bo‘linma rahbarlari tomonidan tegishli buyruqlar bilan tashkil etilgan komissiyalar tomonidan adolat prinsiplari ostida, ishlab chiqarish jarayonida eng faol ishchi-xodimlar ichidan ko‘rib chiqilib berilgan tavsiyalarga asosan “NKMK” AJning Markaziy komissiyasi tomonidan yakuniy xulosa berilib o‘rnatilgan tartibda o‘quv shartnomalarni tuzish. (70-100 kishi) | Buyruq asosida | 2022-yil III-IV-chorakda | **1 000** | Q. Taparov, A. Shaymardanov, O. Raxmatov |
| 20 | Kombinatda faoliyat yuritayotgan o‘rta va quyi bo‘g‘in rahbar va xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash. | “NKMK” AJ rahbarlari, mutaxassislar va ishchi-xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish. Bunda rahbarlar, mutaxassislar va ishchi-xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish buyicha yillik rejani ishlab chiqib tegishli tartibda tasdiqlash. Yil davomida **12000 nafar** ishchi xodimlarni qayta tayyorlab malakasini oshirish ishlarinii bajarish. | Yillik reja asosida | Tasdiq-langan reja asosida | **6 000** | Q. Taparov, A. Shaymardanov, O. Raxmatov, Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari, O‘quv markazi direktorlari |
| 21 | Yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. | 1. NKMK tizimida yoshlarga oid davlat siyosatini 2022-yilda amalga oshirish Dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. Dasturga asosan besh muhim tashabbus, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazish. | Dastur<br><br>Nizomlar, chora-tadbirlar dasturlari | 21-fevral<br><br>Dastur muddat-lariga asosan | **340** | Q. Taparov, I. Raxmatov, A. Shaymardanov, X. Raupov, S. Radjabov, NKMK Jamg‘armasi, NKMK bo‘linma rahbarlari |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 22 | Yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, intellektual salohiyatini oshirish, iqtidor va iste’dod egalarining g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash | 1. NKMK tizimida yoshlarga oid davlat siyosatini 2022-yilda amalga oshirish Dasturida nazarda tutish; 2. **“Yilning eng yaxshi yosh mutaxassisi”, “Yilning eng mohir yosh kasb egasi”, “Yilning eng yaxshi boshlang‘ich tashkilot etakchisi”, “Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi”, “NKMK uchun 100 ta g‘oya” tanlovi** kabi seminar va forumlar o‘tkazish, yosh ratsionalizatorlar klublarini samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | Nizomlar, chora-tadbirlar dasturlari | 21-fevral<br><br>Dastur muddat-lariga asosan | **580**<br><br>NKMK va Kasaba uyushmasi mablag‘lari | Q. Taparov, I. Raxmatov, K. Dadabayev, A. Shaymardanov, X. Raupov, K. Gafurov, S. Radjabov, NKMK bo‘linma rahbarlari |
| 23 | “Zakovat” intellektual o‘yinini rivojlantirish. | 1. “Zakovat” klublari va to‘garaklarini kombinat bo‘linmalarida tashkil etish.<br>2. “Zakovat” intellektual o‘yini bo‘yicha NKMK kubogini o‘tkazish. | Buyruq va Nizom asosida | fevral<br><br>dekabr | **630** | Q. Taparov, I. Raxmatov, A. Shaymardanov, X. Raupov, S. Radjabov, NKMK bo‘linma rahbarlari |
| 24 | Kombinat ishchi-xodimlari, NDKI professor-o‘qituvchi va talabalarining ishlab chiqarish obe’ktlariga ekskursiyalarini tashkil etish. | 1. Kombinat ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining qo‘shma qarori qabul qilingan.<br>2. Jadval asosida **405 nafar** kishi ekskursiyalarga olib boriladi. | Qo‘shma qaror asosida | 2022-yil davomida jadval asosida | **150** | A. Shaymardanov, I. Raxmatov, S. Radjabov, R. Ergashev bo‘linma rahbarlari |
| 25 | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni | 1. Yil davomida MKB, SHKB, JKB, “1-GMZ” KB, NMZ, ZQB va Navoiy shahridagi bo‘linmalarning ishchi-xodimlari o‘rtasida Jismoniy tarbiya va sport klublarining yillik rejasi asosida sport tadbirlari o‘tkaziladi.<br>2. Sport bilan shug‘ulanishda **12** | Kombinat ma’muriyati bilan kelishilgan va Kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan | 2022-yil davomida jadval asosida | **100**<br><br>NKMK va Kasaba uyushmasi mablag‘lari | Q. Taparov A. Shaymardanov, I. Raxmatov, bo‘linmalar rahbarlari |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ijrosini ta’minlash maqsadida kombinat ishchi-xodimlari, ularning oila a’zolari va pensionerlar o‘rtasida sog‘lomlashtirish tadbirlari va musobaqalarni tashkil etish. | **ming nafardan** ortiq ishchi-xodimlar va ularning oila a’zolari, pensionerlar qamrab olinadi. | tasdiqlangan tadbirlar rejasi asosida amalga oshiriladi | | | |
| 26 | Jamoa shartnomasi asosida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olishlari uchun **7700 nafarga yaqin** NKMK pensionerlariga bir martalik mablag‘ ajratish. | 1. Jamoa shartnomasiga ko‘ra kombinat pensionerlariga mablag‘ ajratiladi. | Arizasiga asosan | Yil davomida | **4 000** | A. hHaymardanov, J. Novikova, bo‘linmalar rahbarlari |
| 27 | Jamoa shartnomasiga binoan ishlamaydigan pensionerlarga sanatoriy-profilaktoriyalariga imtiyozli yo‘llanmalar berish orqali kombinat pensionerlari sog‘ligini yaxshilash va yo‘llanmalar ajratish. | 1. Jamoa shartnomasining 14-ilovasiga asosan yil davomida **1500 nafar** pensionerlarga nisbatan amalga oshiriladi | Pensionerlar-ning arizasiga asosan beriladi | Yil davomida | **5 400** | A. Shaymardanov, I. Raxmatov, Kasaba uyushmalari |
| 28 | Kam ta’minlangan, yordamga muhtoj ishchi-xodimlar va kombinatning yolg‘iz pensioner-lariga moddiy yordam ajratish. | 1. Kasaba uyushma Kengashining “Birdamlik” fondi mablag‘lari hisobidan **600 nafardan ortiq** kishiga ajratiladi. | Murojaatchi-ning arizasi va Rayosat qaroriga asosan beriladi | Yil davomida | **1 200** | A. Shaymardanov, I. Raxmatov,<br><br>Kasaba uyushma qo‘mitalari raislari |
| 29 | Respublikamizning chekka va cho‘l hududlarida yashovchi **1000 nafardan** ortiq kam ta’minlangan oila farzandlari va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilar uchun bolalar | 1. Respublika Muvofiqlashtiruvchi guruh raisi tomonidan imzolangan bayonnomaga asosan<br>2. Kombinat ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining qo‘shma qarori asosida | Kelib tushgan murojaatlar asosida | 2022-yil iyun-avgust | **3 400** | A. Shaymardanov, Q. Taparov, I. Raxmatov |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | sog‘lomlashtirish oromgohlariga imtiyozli yo‘llanmalar ajratish. | ajratiladi. | | | | |
| 30 | Navoiy viloyatini muhandis mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha respublika markaziga aylantirish dasturi doirasida Navoiy davlat konchilik instituti negizida, qariyb 15 ming talabani o‘qitadigan **Politexnika universiteti** tashkil etish. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Navoiy politexnika universitetini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori chiqishi bilan O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro tajribalaridan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarni joriy etish, oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish. | Qaror loyihasi kiritilgan | 202- yil | - | Q. Taparov,<br>A. Shaymardanov,<br>F. Baxranov,<br>O. Raxmatov,<br>NDKI prorektorlari |
| 31 | Zarafshon shahridagi Bolalar shaharchasi negizida **matematika va kimyo** yo‘nalishiga ixtisoslashtirilgan **Maktab-internatini** tashkil etish. | Qorako‘l maktabi namunasi asosida tayyorlash. | Loyiha hujjatlari asosida | 2022-yil fevral-sentabr | Loyiha smeta hujjatlari asosida | Q. Taparov,<br>A. Shaymardanov,<br>B. Mardonov,<br>F. Baxronov,<br>O. Raxmatov |
| 32 | Aholini kasb-hunarga o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini tashkil etish, o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlaydigan **Monomarkaz** faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish orqali murakkab uskuna operatori, texnolog, konchi, laborant va yuqori texnologiyalar sohasidagi boshqa yo‘nalishlarga o‘qitish. | Bunda:<br>- viloyatda tog‘-kon, metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati va ularga bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlar uchun kadrlar tayyorlash rejalarini belgilash;<br>- kasb-hunarga o‘qitish maskanlarining o‘quv dasturlari va o‘qitish metodikasini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish;<br>- o‘qish jarayonini ishlab chiqarish bilan bog‘lab, har bir o‘quvchining o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bevosita korxonalarda amaliyot o‘tashini tashkil etishni yo‘lga qo‘yish nazarda tutiladi. | Tasdiqlangan reja asosida | 2022-yil fevral-dekabr | **1 000** | Q. Taparov,<br>O. Raxmatov,<br>F. Hoshimov,<br>B. Qodirov,<br>A. Rizayev,<br>NKMK bo‘linmalar rahbarlari |
| **V. MA’NAVIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASH VA SOHANI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 33 | Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mazmun-mohiyatini ishchi-xodimlar o‘rtasida targ‘ib qilish. | 1. Kombinatda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish.<br>2. Bo‘linmalarda Amir Temur, A.Navoiy, Z.M.Bobur kabi buyuk siymolar tavallud kunlari va tarixiy sanalar munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladi. | “Yo‘l xaritasi”dagi tadbirlar amalga oshiriladi | Kombinat bo‘linma-larida tasdiqlan-gan reja asosida | - | X. Raupov, Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari |
| 34 | Kombinat ishchi-xodimlari va yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, oilalar mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish. | 1. Hamkor tashkilotlar bilan har bir bo‘linma kesimida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. | Seminar, davra suhbatlari | Tasdiq-langan reja | - | X. Raupov, A. Soliyev, S. Radjabov, S. Nazarova |
| 35 | Yosh oilalar, imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, volontyorlik aksiyalarini tashkil etish. | 1. “Ezgulik yo‘lida birlashaylik”, “Fidoyi yoshlar” aksiyalari, “Ezgulik albatta qaytadi” qon topshirish aksiyalari Nizomlarini tasdiqlash.<br>2. Aksiyalarda kombinat yoshlarining faol ishtirokini ta’minlash. | Nizomlar asosida | mart<br>har oyda | **50** | Q. Taparov, I. Raxmatov, S. Radjabov B. Saidov |
| 36 | Kombinatda **“Jaholatga qarshi ma’rifat”** g‘oyasi asosida ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada yaxshilash. | 1. Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Navoiy viloyat bo‘limi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligida targ‘ibot guruhini shakllantirish;<br>2. Targ‘ibot guruhi rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>3. Barcha bo‘linma ishchi-xodimlari o‘rtasida **“Jaholatga qarshi ma’rifat”** g‘oyasi asosida dolzarb mavzularda davra suhbatlari hamda targ‘ibot | Chora-tadbirlar rejasi | 2022-yil 15-mart<br>Chora-tadbirlar rejasiga | - | X. Raupov, S. Radjabov, Bo‘linma rahbarlari |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | tadbirlari tashkil etish. | | asosan | | |
| **VI. MILLIY MANFAATLARDAN KELIB CHIQQAN HOLDA UMUMBASHARIY MUAMMOLARGA YONDASHISH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |
| 37 | **“Yashil makon”** milliy dasturi doirasida kombinat tomonidan 51 500 ta mevali, manzarali daraxt va butasimon ko‘chatlar ekib, dastur ijrosida faol ishtirok etish. | 1. Mevali va manzarali daraxt hamda buta ko‘chatlarini ekish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanadi. Bunda:<br>- har bir bo‘linma bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar belgilab beriladi.<br>2. Reja asosida bo‘linmalarda ko‘chat ekish ishlari olib boriladi. | Kombinat buyrug‘i qabul qilinadi | 2022-yil fevral | **300** | Q. Taparov,<br>A. Shaymardanov,<br>B. Saidov,<br>I. Raxmatov,<br>Bo‘linma rahbarlari |
| 38 | Yordamga muhtoj ishchi-xodimlar oilalari va ehtiyojmand yolg‘iz pensionerlar uchun oziq-ovqat mahsulotlari to‘plamini ajratish | 1. Milliy bayramlar arafasida kombinat ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining qo‘shma qarori asosida **2000 dan** ortiq oziq-ovqat to‘plami ajratiladi | Bo‘linmalar kasaba uyushmalari tomonidan shakllantiril-gan ro‘yxat asosida | Bayramlar arafasida | **500** | Q. Taparov,<br>A. Shaymardanov,<br>I. Raxmatov,<br>B. Saidov |
| 39 | Koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish | 1. Koronavirus infeksiyasi tarqalashining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi<br>2. Karantin talablariga rioya etish bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib boriladi | Qo‘shma qaror asosida | 2022-yil davomida | **1 000** | Q. Taparov,<br>A. Shaymardanov,<br>I. Raxmatov,<br>B. Saidov |
| **VII. MAMLAKATIMIZ XAVFSIZLIGI VA MUDOFAA SALOHIYATINI KUCHAYTIRISH, OCHIQ PRAGMATIK VA FAOL TASHQI SIYOSAT OLIB BORISH** | | | | | | |
| 40 | Mutaassiblik, ekstremizm va terrorizmning asl maqsadi va mazmun-mohiyatini ochib beruvchi targ‘ibot ishlarini olib borish. | 1. Kombinat ishchi-xodimlari o‘rtasida mutaassiblik, ekstremizm va terrorizmga qarshi sog‘lom mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlari, davra suhbatlari, uchrashuv-muloqotlar yuzasidan chora- | Chora-tadbirlar rejasi | 2022-yil 24-fevral | - | K. G‘afurov,<br>X. Raupov,<br>S. Radjabov,<br>Bo‘linma rahbarlari |

| T/r | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln. so‘mda) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | tadbirlar rejasi tasdiqlanadi.<br>2. Kombinatning har bir bo‘linmasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va diniy idora vakillari ishtirokida **“Islom dini terrorga qarshi”, “Ma’naviyat – odam va olam xaloskori”, “Odam savdosi xavfidan ogoh bo‘ling”, “Ijtimoiy makonda axborotdan foydalanish madaniyati”, “Diniy ekstremizm va terrorizm tahdidlari, uning jamiyat ijtimoiy-ma’naviy muhitida ko‘rsatadigan salbiy ta’siri”, “Ommaviy madaniyat va ma’naviy tarbiya”** kabi mavzularda targ‘ibot tadbirlari o‘tkaziladi. | Har bir bo‘linmada tadbirlar tashkil etiladi | Chora-tadbirlar rejasida ko‘rsatil-gan sanalarda | | |
| **DAVLAT DASTURINI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA IJTIMOIY TARMOQLAR ORQALI KENG YORITIB BORISH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |
| 41 | “Inson qadri uchun” rukni orqali davlat dasturining kombinatdagi ijrosi bo‘yicha “Konchilar hayoti” gazetasi va boshqa ommaviy axborot vositalarida muntazam materiallar yoritib borish. | 1. “Konchilar hayoti” gazetasida har oyda ikki marta maqola, xabarlar tayyorlanadi.<br>2. Gazeta, kombinat sayti va ijtimoiy tarmoqlarda dastur ijrosi bo‘yicha xabarlar beriladi | Maqola, xabarlar tarzida | Har oyda ikki marta | - | X. Raupov,<br>N. Sadriddinov |
| 42 | “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”ga bag‘ishlangan videoroliklar, infografikalar, fotoetyudlar tayyorlash va ularni yoritib borish. | 1. Videoroliklar, infografikalar, fotoetyudlar tayyorlanib, kombinat sayti va ijtimoiy tarmoqlarda berib boriladi | Reja asosida | Har oyda | - | X. Raupov,<br>B. Abdullayev,<br>A.Jo‘rayev |

*Izoh: 2022 yilda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid chora-tadbirlar Dasturi tadbirlarini amalga oshirishda jami xarajatlari (dastlabki hisob-kitoblarga asosan)* ***44,4 mlrd so‘m va 486 mln AQSh dollarini*** *tashkil qiladi.*